


FARG'ONA VILOYATIDA DEMOGRAFIK HOLAT (2020-yil yanvar- dekabr, dastlabki ma'lumot)

Doimiy aholi soni. Farg'ona viloyatining doimiy aholisi soni 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 3819,9 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 67,9 ming kishiga yoki 1,8 % ga o'sdi.



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021-yil 1-yanvar holatiga, ming kishi)





Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021-yil



1-yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Farg'ona shahrida 293,6 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi (7,6 %) va Quva tumanida 261,3 ming kishini (6,8 %), aksincha eng kam aholi soni Quvasoy shahrida 95,0 ming kishi (2,4 %) va So'x tumanida 79,1 ming kishini (2,0 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2019-yilning mos davriga nisbatan Qo'shtepa 2,2 %, Bog'dod va Toshloq, Dang'ara tumanlarida 2,1 %ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati, Qo'qon shahrida va Beshariq tumanida 1,5 %ni, tashkil etdi.

Shahar qishloq aholisining jami aholiga nisbatan ulushi, %da




Erkaklar va ayollarning jami aholiga nisbatan ulushi, %da



Tug'ilish. 2020- yilning yanvar - dekabr oylarida 93,0 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 24,6 promilleni tashkil etdi hamda 2019 - yilning mos davriga nisbatan 1,0 promillega oshganligi kuzatildi (2019 - yilning yanvar- dekabr oylarida 23,6 promille bo'lgan).


Hududlar kesimida tug'ilish koeffitsiyenti (2020- yil yanvar- dekabr 1000 aholiga nisbatan, promille)




■ Tug'ilish koeffitsiyenti

Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Farg'ona viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni (2020-yil yanvar- dekabr oylari bo'yicha, ming kishi)



Farg'ona viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni
(yanvar- dekabr)
Yillar



Ming kishi

Vafot etganlar. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 18,5 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,9 promilleni tashkil etdi. 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega kopayganligi (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida 4,6 promille bo'lган) kuzatildi.

O'lim koeffitsiyentining sezilarli darajadagi ko'payishi Qo'qon shahri (5,1 promilledan 5,9 promillega), Yozyovon tuman (3,4 promilledan 4,2 promillega), va Farg'ona tumanlarida (4,6 promilledan 5,1 promillega) o'sgan.


Shahar va tumanlar bo'yicha o'lganlar soni (yanvar-dekabr, kishi)

	<i>2019 y.</i>	<i>2020 y.</i>	<i>O'sish sur'ati</i>
Farg'ona viloyati	17202	18544	107,8
Farg'ona sh.	1581	1692	107,0
Qo'qon sh.	1291	1495	115,8
Quvasoy sh.	447	455	101,7
Marg'ilon sh.	1198	1338	111,6
Oltiariq	956	1050	109,8
Qo'shtepa	836	892	106,6
Bog'dod	906	943	104,0
Buvayda	878	954	108,6
Beshariq	936	1061	113,3
Quva	1169	1183	101,2
Uchko'prik	1003	1012	100,9
Rishton	872	902	103,4
So'x	288	283	98,2
Toshloq	885	954	107,8
O'zbekiston	1078	1191	110,5
Farg'ona	976	1093	112,0
Dang'ara	895	913	102,0
Furqat	639	665	104,0
Yozyovon	368	468	127,2

2020 yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 62,5 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 4,4 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 8,2 foizi o'simtalardan, 7,3 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,2 foizi ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 1,1 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 11,3 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 598 nafarni tashkil etib, ularning 40,6 foizi perinatal davrda yuzaga kelgan holatlardan, 27,6 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 16,7 foizi tug'ma anomaliyalardan, 3,7 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 6,0 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan va 5,4 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi




Tabiiy o'sish. 2020 yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 74,4 ming kishini tashkil etib, 2019 yilning mos davriga nisbatan 3,9 ming kishiga (2019 yilning yanvar-dekabr oylarida 70,5 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Farg'ona viloyati bo'yicha vafot etganlar soni

(yanvar-dekabr)


Yillar




Nikoh. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 34,1 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 9,0 promilleni tashkil etdi.

So'x tumanida (kamayish sur'ati 13,5 foiz), Uchko'prik tumanida (kamayish sur'ati 12,4 foiz) kamayish holatlari yuz berdi.

Farg'ona viloyati bo'yicha nikohlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar- dekabr, ming)




Hududlar kesimida tuzilgan nikoh koeffitsiyenti (2020- yil yanvar-dekabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)




Nikohdan ajralishlar. 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida 2,8 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,8 promilleni tashkil etdi.

Farg'ona viloyati bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni to'g'risida ma'lumot

(yanvar- dekabr, ming)



Hududlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti
(2020- yil yanvar- dekabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Migratsiya. 2020-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 9675 kishini tashkil etdi.



2020-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib ketganlar soni esa 16197 kishini tashkil etdi

Migratsiya saldosi minus 6522 kishi bo'lib, 2019-yilning o'tgan shu davrida minus 1815 kishi bo'lган.

Aholi migratsiyasi (kishida)

Ko'chib kelganlar	2019- yil yanvar dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	O'tgan yilning shu davriga nisbatan ko'chib kelganlar soni 9675 kishi, ko'chib ketganlar soni esa 16197 kishi. 2020-yilning 12 oyi davomida migratsiya saldosining eng yuqori kamayish darajasi Bog'dod tumani (minus 1000 kishi) va eng yuqori o'sish darajasi Furqat tumanida (531 kishi) qayd etildi.
Ko'chib ketganlar	12667	9675	
Migratsiya saldosi	14482	16197	
	-1815	-6522	

**Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi.
tel:(373) 249-87-32**